

Rayimov Nursulton Murodilovich,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti



OILAVIY MUNOSABATLARDA NIZOLAR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlar, oilada o‘smirlarning zo‘ravonlikka moyil bo‘lishi omillari, oilaviy munosabatlarning bola tarbiyasidagi o‘rni haqida keltirib o‘tilgan.

Аннотация. В статье представлены семейные отношения, факторы склонности подростков к насилию в семье, роль семейных отношений в воспитании ребенка.

Annotation. The article presents family relations, factors of adolescents' propensity to domestic violence, the role of family relations in the upbringing of a child.

Tayanch so‘zlar: oila, oilaviy munosabatlar, negativizm, konflikt.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, негативизм, конфликт.

Keywords: family, family relations, negativism, conflict.

Kirish. Respublikamizda zo‘ravonlik muammosini o‘rganish uchun yangi ijtimoiy yondashuvni amalga oshirish, ayniqsa, zamonaviy o‘zbek oilalari sharoitida, ijtimoiy nizolarning shartlari va oqibatlarini, ularni oldini olish va zo‘ravonliksiz hal qilish usullarini tushunish dolzarb vazifadir. Oilaviy zo‘ravonlik, ayniqsa, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik murakkab ijtimoiy va ilmiy muammodir. Shu nuqtayi nazardan bolalarga

Bolani tarbiyalash oilaning baxt-saodatiga, jamiyatning baxtli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarga ko'p e'tibor berishni talab etadi. Bolalarni jismonan sog'lom, aqlli, jamiyatga, odamlarga xizmat qilishidan quvonadigan qilib tarbiyalagan ota-onalar o'z vazifalarini bajargan hisoblanadilar.

nisbatan zo'ravonlikdan himoya qilish uchun 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasi BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining bolalar huquqlari bo'yicha vakili(Ombudsman) faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma qarori bilan bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslari tubdan takomillashtirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Oilaviy-maishiy zo'ravonlikni profilaktika qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3827-son hamda 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimi takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qarorlari qabul qilindi. Mazkur qarorlar jamiyatimizda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Oilaviy tarbiya, oilaviy muhit bolaga ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi va buning o'rnini hech qaysi tarbiyaviy muassasa bosa olmaydi.

Bolani tarbiyalash oilaning baxt-saodatiga, jamiyatning baxtli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarga ko'p e'tibor berishni talab etadi. Bolalarni jismonan sog'lom, aqlli, jamiyatga, odamlarga xizmat qilishidan quvonadigan qilib tarbiyalagan ota-onalar o'z vazifalarini bajargan hisoblanadilar.

Asosiy qism. O'smirlar orasida zo'ravonlik holatlari sonining ortib borayotgani hammani birdek xavotirga olayotganini chiqarilayotgan qarorlardan ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "...ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmaslik va ularning o'z majburiyatlarini bajaraishga to'sqinlik qilmaslik..."¹ ta'lim oluvchilarning majburiyatlari qatorida zo'ravonlik qilmaslik haqida keltirilganidan hozirgi kunda zo'ravonlikka qarshi qanchalik kurashilayotganini ko'rishimiz mumkin.

UNESCO hisobotida aytilishicha, o'quvchilarning 32% i dunyo bo'ylab maktablarda tahqirlanadi. Zo'ravonlik dunyo bo'ylab asosiy muammo bo'lib kelmoqda. Ta'kidlanishicha, jismoniy zo'ravonlik o'g'il bolalar orasida, psixologik zo'ravonlik esa qizlar orasida keng tarqalgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma qarori. 1445-IV-son. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining bolalar huquqlari bo'yicha vakili(Ombudsman) faoliyatini tashkil etish to'g'risida. (28.10.2021)

Mamlakatimizda milliy qonunchiligida ham dunyoning rivojlangan davlatlari qatori insonning barcha huquq va erkinliklari, shu jumladan, oiladagi zo‘ravonlikni taqiqllovchi, insonni zo‘ravonlikka, qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etmaslik kabi qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” (24-modda), “Har kim o‘z sha‘ni va obro‘sig a qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani sh va turar joy daxlsizligi huquqiga ega” (27-modda) kabi qoidalarning mustahkamlab qo‘yilganligi mamlakatimizda inson huquqlari himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Zamonaviy psixologiyada zo‘ravonlik muammosini L.S.Alekseyeva, I.A.Bayeva, E.V.Burminstova, N.F.Mixaylova, N.O.Zinovyeva kabi tadqiqotchilar o‘rganib borishmoqda. Chet el mutaxassislari orasida ta‘lim muhitida shaxsga nisbatan zo‘ravonlik vaziyatiga “bulling” deb ta‘rif berilgan. Bulling muammolariga bag‘ishlangan qarashlarni zamonaviy xorijiy va Rossiya tadqiqotlarida ko‘plab kuzatish mumkin, biroq aynan bulling muammosiga doir tadqiqotlar yetarlicha tahlil qilinmaganini kuzatish mumkin.

Adabiyotlarda zo‘rlik – biror kishining ikkinchi bir kishini zo‘ravonlik, kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi, yoxud zo‘rlik – biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo‘rlik qilishi, zo‘ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi deb ko‘rsatilgan.

Bulling (inglizcha – bullying) tushunchasi bezorilik, zo‘ravonlik qilish, qo‘rqitish, shuningdek, bir jamoa a‘zosining boshqa a‘zolar yoki muayyan bir a‘zo tomonidan agressiv ravishda ta‘qib qilishini bildiradi. Ta‘qib qilish jarayonida qurbon o‘ziga nisbatan amalga oshirilgan zo‘ravonlikka nisbatan hech qanday javob qaytara olmasligi mumkin.

Zo‘ravonlik boshqa odamga hukmronlik qilish uchun tajovuzkor xatti-harakatni anglatadi. Bu bir shaxs boshqalarga hukmronlik qilishi uchun boshqalar ustidan hokimiyatni majburlashni anglatadi. Bu bir marta emas, balki tez-tez takrorlanadigan harakatdir. Boshqalarni haqorat qiladigan odamni bir necha sabablarga ko‘ra boshqalarni masxara qiladigan zo‘ravonlar deb atash mumkin. Zo‘ravonlik – bu kimningdir hukmronlik nomutanosibligini idrok etishining natijasidir.

Psixologik nuqtayi nazaridan olib qaraganda, bola ruhiy sog‘lom rivojlanishi va tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi uchun ehtiyojlari doirasida to‘liq qondirilishi kerak:

***Adabiyotlarda
zo‘rlik – biror
kishining ikkinchi
bir kishini
zo‘ravonlik, kuch
ishlatish yo‘li
bilan xo‘rlashi,
jabr-zulm qilishi,
yoxud zo‘rlik –
biror kishining
ikkinchi bir kishiga
nisbatan zo‘rlik
qilishi, zo‘ravonlik,
jismoniy kuch
ishlatish yo‘li bilan
xo‘rlashi, jabr-
zulm qilishi deb
ko‘rsatilgan.***

***Ijtimoiy xatar
guruhidagi
oila - balogʻat
yoshiga yetmagan
farzandlarga ega,
ota-onalari oʻz ota-
onalik vazifalarini
bajarishdan bosh
tortayotgan,
ota-onalik
huquqlaridan oʻz
manfaatlari uchun
foydalanayotgan,
bolalarga
shafqatsiz
munosabatda
boʻlayotgan,
ichkilikbozlik va
giyohvandlikka
berilgan oilalar.***

- ota-ona gʻamxoʻrligi va eʼtiboriga ehtiyoj;
- emotsional sohasidagi ehtiyohlari;
- ijtimoiy bilimga ehtiyoji;
- bolaning ijtimoiy hayotga jalb qilinishi bilan bogʻliq ehtiyojlar.

Oila vazifalari oila aʼzolarining maʼlum ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bogʻliq faoliyati doirasidan iborat. Bir funksiyasi vaqt oʻtishi bilan yoʻqotiladi, boshqalari ijtimoiy sharoitlarga qarab oʻzgaradi, yordamchiga aylanadi. Bundan tashqari, zamonaviy nazariy qarashlar oilaning turli sonli vazifalarini koʻrsatadi. Shu bilan birga, toʻlaqonli oilaning butun hayoti davomida u yoki bu shaklida saqlanib qoladigan vazifalari mavjud.

Ijtimoiy va pedagogik adabiyotlarni, qonunchilik hujjatlari mazmunlarini oʻrganib chiqishi turli sabablarga koʻra ota-onalik huquqlaridan mahrum etilishi mumkin boʻlgan oilalarning turli tushunchalarini aniqlashga imkon beradi.

Ijtimoiy xatar guruhidagi oila – balogʻat yoshiga yetmagan farzandlarga ega, ota-onalari oʻz ota-onalik vazifalarini bajarishdan bosh tortayotgan, ota-onalik huquqlaridan oʻz manfaatlari uchun foydalanayotgan, bolalarga shafqatsiz munosabatda boʻlayotgan, ichkilikbozlik va giyohvandlikka berilgan oilalar.

Ijtimoiy xavfli holatda boʻlgan oilalar – farzandlari ijtimoiy xavf ostida boʻlgan, farzandlariga tarbiyalash, taʼlim berish va boqish boʻyicha oʻz vazifalarini bajarmayotgan hamda ularning xulqiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz munosabatda boʻlayotgan oilalar.

Qiyin hayotiy vaziyatda boʻlgan oilalar – yuzaga kelgan sharoit va vaziyat natijasida hayot faoliyati obyektiv oilalar. Muammolar sezilmas darajada namoyon boʻladigan va rivojlanmaydigan notoʻliq, koʻp bolali oilalar, imkoniyati cheklangan farzandi boʻlgan oilalar, kam taʼminlangan oilalar.

Taniqli chexoslovakiyalik olimlar I.Langmeyer va Z.Mateychik bolalarni ijtimoiy muhitdan ajratish va separatsiya, mavjud ijtimoiy munosabatlarning yoʻqolishi, ularning muhim ehtiyojlari qondirilmagan boʻlib qolishiga olib kelishini taʼkidlaydilar.

Britaniyalik olim K.Uayt institutsional muassasadagi bolalarning muammolarini muhokama qilib: “Maktabda qoʻshnilar bilan munosabatda, ijtimoiy xizmatlar “jamoasi”da his qilinadigan koʻpgina turli sigmatik jarayonlar tufayli boshqa bolalardan ajralib qolgan boʻladilar” deb hisoblaydi.

Oiladagi quyidagi munosabatlar bolada zoʻravonlik hissi shakllanishiga omil boʻlishi mumkin:

- oiladagi axloqsiz munosabatlar;
- ota-onalarning bola tarbiyasiga nisbatan befarqligi;
- oila janjallar;
- badavlat oila;
- kambag'al oila;
- yuqori darajadagi stress;
- ota-onalarning bolalariga bo'lgan zo'ravon munosabatlari;
- asotsial, ruhiy nosog'lom ota-onalar;
- ota-onalarni alkogol moddalar iste'mol qilishi.

Oiladagi shu kabi omillarni tushintirish davomida bir qator o'zbek psixolog olimlarimiz ham tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, G'.B.Shoumarov tahriri ostida ilk bor akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun "Oila psixologiyasi" darsligi tuzildi. Unda O'zbekistonda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanilgan holda oilaning etnopsixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatilgan. Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek oilalasidagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarning o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari ifodalangan. Shuningdek, G'.B.Shoumarovning so'nggi o'n yilliklar davomida chop etilgan ishlarida o'zbek oilasida ota-ona va farzandlar, bolalarning o'zaro munosabatlari xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

Psixolog Sh.A.Do'stmuhammedova ham ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat bola shaxsi shakllanishidagi yetakchi omillardan biri, deb hisoblaydi. Bolaga tarbiya berishda ota-onadagi mavjud psixologik va pedagogik bilimlar, ularning oiladagi va ijtimoiy hayotdagi obro'si juda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlarda zo'ravonlik hissining shakllanishi, avvalo, ota-ona yoki aka-ukalar bilan munosabatlarga bog'liqligi yuqori ko'rsatkichni namoyon etgan.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, oila-bolaning yaxshi hayot kechirishi va rivojlanishi uchun mumkin bo'lgan yagona eng yaxshi muhit. Oila bolani ijtimoiylashtirishning eng mos omili hisoblanadi. Aynan oila qarindoshlik munosabatlari tajribasi, kattalar bilan muloqot qoidalari, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Oilada tug'ilgan farzandlarning barkamol inson bo'lib shakllanishi oilaning ta'lim-tarbiyasiga, bola dunyoqarashining shakllantirilishiga, oilaning ijtimoiy holati bilan uzviy bog'liqdir. Ota-onaning ijtimoiy vazifasi farzandga shaxslararo munosabatlarga kirisha olish malakalarini shakllantirish, odob-axloqli qilish, bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Ota-onalarning o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan qarashi, albatta, bolaning xulqida turli og'ishlarga olib kelishi mumkin.

Oiladagi shu kabi omillarni tushintirish davomida bir qator o'zbek psixolog olimlarimiz ham tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, G'.B.Shoumarov tahriri ostida ilk bor akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun "Oila psixologiyasi" darsligi tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"gi O'RQ-637-son Qonuni.
3. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri.
4. Rayimov N.M. Oilaviy munosabatlarda zo'ravonlik hissi vujudga kelishi haqidagi psixologik qarashlar // "Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta'lim va barqaror kelajak" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024.
5. G'ulomqodirov E.A. Oilaviy zo'ravonlikka uchragan bolalarning psixologik profili // "Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta'lim va barqaror kelajak" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024.
6. Rayimov N.M. Oiladagi tarbiyaning zo'ravonlik hissi vujudga kelishiga ta'siri // *International scientific journal "Interpretation and researches". Volume 2 issue 8 (30) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2*